Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari	691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili	695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich	
Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar	699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari.....	710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi.....	718
Berdiyeva Malika	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish	721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundixan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Adizova Nigora Baxtiyorovna

BuxDPI professori, p.f.d. (DSc)

Akbarova Sarvinoz Sadridinova

BuxDPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning dolzarbligi ilmiy asosda yoritilgan. Ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni muntazam rivojlantirib borish masalalari pedagogikaning muhim muammolari sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tayanch hayotiy kompetensiya, kompetentlilik, xususiy kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, kreativlik, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article scientifically substantiates the relevance of developing basic life competencies among primary school pupils. The study analyzes the organization of the educational process based on a competency-based approach, as well as the formation and continuous development of competencies among teachers and students as one of the key issues in modern pedagogy. Furthermore, the theoretical and practical aspects of fostering basic life competencies in the context of contemporary education are examined.

Key words: competency, basic life competencies, competence, specific competency, knowledge, skills, abilities, creativity, communicative competence, critical thinking.

Аннотация: В статье научно обоснована актуальность формирования базовых жизненных компетенций у учащихся начальных классов. Проанализированы вопросы организации образовательного процесса на основе компетентностного подхода, формирования и систематического развития компетенций учителей и обучающихся как одной из актуальных проблем современной педагогики. Также раскрыты теоретические и практические аспекты формирования базовых жизненных компетенций в условиях современного образования.

Ключевые слова: компетенция, базовые жизненные компетенции, компетентность, частная компетенция, знания, умения, навыки, креативность, коммуникативность, критическое мышление.

KIRISH

Kompetensiya – o'quvchilarning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talabdir. Kompetentlilik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning bir nechta talqinlari mavjud. Kompetentlilik o'quvchining tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishini anglatadi.

Kompetentlilik o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar hamda muayyan sohadagi faoliyati jarayonida to'plangan minimal darajadagi bilim, ko'nikma, malaka va amaliy tajribalarni o'z ichiga oladi. Xususiy kompetensiyalar va tayanch kompetensiyalar o'zaro farqlanadi. Tayanch kompetensiyalar o'quvchining istiqboldagi hayotiy-ijtimoiy faoliyati modelini ifodalaydi. O'quvchilar muayyan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lgach, o'zlari egallagan kompetensiyalarni faoliyat jarayonida tatbiq eta oladilar. Tayanch kompetensiyalar, asosan, o'quvchining istiqboldagi ijtimoiy faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Xususiy o'quv fanlari doirasida o'zlashtiriladigan kompetensiyalar esa asosan o'quv va kelgusidagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kompetensiyalar har bir mamlakat xalqining turmush tarzi, madaniy va ma'naviy hayoti hamda an'analaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya'ni ijodiy-yaratuvchanlik xarakteriga ega bo'lib, ularni muntazam faollikka undaydi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional hamda fuqarolik kompetensiyalarini kiritish mumkin. O'quvchilarda



kompetensiyalardan foydalanish tajribasini hosil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o'qituvchilar tomonidan tanlanadigan ikkilamchi loyihalar tarkibiga kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari hamda ta'limiy topshiriqlarni kiritish, shuningdek, raqamli didaktik vositalarni ishlab chiqishda ham aynan shu nuqtayi nazardan yondashish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi va barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid kompetensiyalar belgilab berildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda umumiy va xususiy yondashuvlarni aniq hisobga olish hamda mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda mazkur hodisaning nazariy-didaktik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda kompetentli yondashuv tushunchasi pedagogika fanida keng qo'llanilmoqda. Ta'lim amaliyotida tez-tez uchrayotgan ushbu atama ta'lim mazmunida ustuvor o'rin egallamoqda. Kompetentli yondashuv tayanch tushuncha sifatida zamonaviy pedagogikaning ilmiy tushunchalari tarkibiga singib borish bosqichlarini o'tamoqda. Mazkur tushunchaning o'ziga xos jihati uning pedagogika fanida avval qo'llanib kelgan tushunchalar bilan o'zaro qiyoslashni taqozo etishidir. Ushbu tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv doirasiga kiradigan va u bilan o'zaro aloqador bo'lgan tushunchalarni izohlashga harakat qilinadi. Ular jumlasiga kompetensiya, kompetentlilik, kasbiy kompetentlik va pedagogik kompetentlik tushunchalari kiradi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida kompetentlilik va tayyorlik, shuningdek, kompetensiya hamda bilim, ko'nikma va malakalarning har biri yuzasidan ilmiy tahlil olib boriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetentli yondashuv yagona ta'lim jarayonini ta'minlashning konseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shu sababli u bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilashni taqozo etmoqda. O'tgan asrning 90-yillaridayoq kompetentlilik tushunchasi, bir tomondan, yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtirish imkonini berib, insonning bilish faoliyati va amaliy harakatlariga taalluqli ekanligi, ikkinchi tomondan esa har bir sinfda pedagogik vaziyat bilan bog'liq holda ta'limiy talablarni aniqlashga ko'maklashishi haqida N. S. Rozov tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida olib borilgan tadqiqotlar umumiy o'rta ta'lim maktablari davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish masalalari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda R. G. Safarova, M. M. Vahobov, Yu. M. Asadov hamda M. Pardayevalarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Ma'lumki, kompetentli yondashuv insonning ijtimoiy hayotga har tomonlama tayyorligi va tarbiyalanganligi bilan bir qatorda, shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashda insonparvarlik xarakteriga ega. Insonparvarlik prinsipiga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi o'quvchilarga muayyan sohada bilim, ko'nikma va malakalar majmuini taqdim etishdangina iborat bo'lmay, balki ularning dunyoqarashi, layoqati, kreativ faoliyati hamda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, mazkur jarayon o'quvchilar ongiga insoniy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Ushbu jihatlarning barchasi kompetentli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Kompetentli yondashuvning tayanch darajalari ta'limning bevosita maqsadga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Kompetensiyada o'quvchilarning yuqori darajada umumlashgan ko'nikma va malakalari mujassamlashtadi. Ta'lim mazmuni esa to'rt komponentli model orqali oydinlashadi. Ular bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyatli munosabat tajribasidan iborat.

Mutaxassislar kompetentli yondashuv doirasida ikki tayanch tushunchani alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular kompetensiya va kompetentlilik tushunchalaridir. Pedagogik nazariyada mazkur tushunchalarning mohiyatini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyalarning shakllanishi hamda ular orasidagi o'zaro munosabatlar bunga misol bo'la oladi. Olimlar orasida kompetensiyalarning tavsifiga doir yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim mutaxassislar "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari o'rtasida aniq chegara mavjud emas, deb hisoblaydilar. Bunday olimlar sirasiga V. S. Lednev, N. D. Nikandrov va M. V. Rijakovlarni kiritish mumkin. Aksariyat mutaxassislar esa ushbu tushunchalar orasidagi farqli jihatlarni ko'rsatib o'tganlar.

A. V. Xutorskoy o'z tadqiqotlarida mazkur farqlarni alohida ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, kompetensiya ta'limiy tayyorgarlikka qo'yilgan ijtimoiy talab sifatida baholanadi. Kompetentlilik esa muayyan kompetensiyani o'zlashtirish va egallashdan iborat faoliyat bo'lib, faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni mujassamlashtiradi. A. V. Xutorskoyning ta'kidlashicha, kompetentlilik shaxsning sifati hisoblanadi va u insonning muayyan kompetensiyani egallashini taqozo etadi. Shu tariqa kompetensiya bilimlar, ko'nikmalar, malakalar

va faoliyat usullari majmui bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismini tashkil etadi. Kompetensiya muayyan narsa va jarayonlarga nisbatan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi. Kompetensiya insonning muayyan sohada sifatli faoliyat ko'rsatishi uchun nihoyatda muhimdir.

I. A. Zimnyaya kompetensiyani muayyan ichki potensial, yangidan shakllangan yashirin ruhiy holat sifatida talqin etadi. U insonning kompetentligi doirasiga bilimlar, tasavvurlar va algoritmlarni kiritib, ularning faoliyat jarayonida ifodalanishini ta'kidlaydi.

"Kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarini o'zaro qiyoslash orqali ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga xos bo'lgan "ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar", "ta'lim natijalarini baholash mezonlari" hamda "ta'lim darajalari" tushunchalari bilan tenglashtirish imkoniyatini izohlash mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, bitiruvchi sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni mujassamlashtirgan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari kompetensiyalarni ifodalaydi. O'quvchilarning shaxsan erishgan aniq natijalari esa ularning kompetentlilik darajasini aks ettiradi.

Kompetentli yondashuvning insonparvarlikka xos jihatlarini tasdiqlagan holda aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik paradigma doirasida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'quvchilarda tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar pedagogika fani va ta'lim amaliyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur muammoning dolzarbligini ta'kidlagan holda Ye. V. Bondarevskaya kompetensiyani shaxs tomonidan anglangan, inson tajribasiga singib ketgan hodisa sifatida baholab, uning shaxs bilimlari, ko'nikmalari va malakalari tizimida muhim o'rin egallashini ko'rsatib beradi.

Kompetentlilik ta'limning asosiy maqsadi sifatida namoyon bo'ladi va faoliyatning turli turlarini amalga oshirishga tayyorlikni ifodalaydi. Kompetensiya bilim, ko'nikma va malakalardan tubdan farq qilgan holda, ularni inkor etmaydi. Kompetensiya bilimlardan faoliyat turi haqida axborot berishi bilan emas, balki faoliyat turida bevosita namoyon bo'lishi bilan farqlanadi. Kompetensiya ko'nikmalardan turli vaziyatlarda turli-tuman topshiriqlarni hal etish imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Malakalardan esa kompetensiya anglanganligi va avtomatlashtirilmaganligi bilan farqlanib, u o'quvchilarga nafaqat odatiy, balki nostandart vaziyatlarda ham aniq va mustaqil harakat qilish imkonini beradi. Bu holat bilim, ko'nikma va malakalarning mavqei ta'limning asosiy va oraliq maqsadlariga xizmat qilib, ko'zlangan natijaga erishish uchun zarur sharoit yaratishini ko'rsatadi.

Kompetentli yondashuv doirasida bilim, ko'nikma va malakalarning aniq darajasi ta'lim natijalari hamda uning ahamiyatli jihatlarini bilan uyg'unlashib, kompetensiyalar – layoqatlar majmuini hosil qiladi. Bu esa o'quvchilarga jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuvda jarayon markaziga o'quvchi shaxsi qo'yiladi va rivojlanish vaziyatlarida uning roli yaqqol namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda chop etilayotgan ilmiy manbalarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni bir yo'la loyihalashtirish g'oyasi ilgari surilmoqda. Shu asosda bir qator yondashuvlarni ilgari surish imkoniyati mavjud.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga qadar "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini tavsiflovchi yagona yondashuv mavjud emas. Kompetensiyalarni tushunish va tavsiflash jarayonida kompetensiyaning ta'lim oluvchi shaxsiga taalluqliligi, bilim, ko'nikma va malakalarning mahsuli bo'lsa-da, ularning tarkibiy qismi emasligi haqidagi qarashlar ilgari surilmoqda.

Mazkur nuqtayi nazardan yondashilganda, kompetensiya ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. U davlat ta'lim standartlari, bitiruvchi sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalar majmuini ifodalovchi, shaxsning tayyorgarligini ta'minlovchi va uning shaxsiy tajribasiga kirgan, ular uchun ahamiyatli bo'lgan me'yorlardan iborat. Kompetentlilik esa kompetensiyalarni egallash jarayonini ifodalab, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan shaxsiy munosabati hamda ta'limning real darajasini o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish holatini aniqlash va baholash maqsadida turli ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari umumta'lim maktablarida tashkil etilgan ta'lim jarayonini bevosita kuzatish, pedagogik hujjatlar va o'quv dasturlarini tahlil qilish, shuningdek, o'qituvchilar faoliyatini o'rganish orqali olindi. O'quvchilarning tayanch hayotiy kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlashda suhbat, so'rovnoma hamda amaliy mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyat natijalari asosiy manba sifatida xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tizimli va mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ular asosida kompetensiyalarning shakllanish darajasi hamda ta'lim jarayonining samaradorligi baholandi. Shuningdek, mavjud holat bilan kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni natijalari o'zaro taqqoslab tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar chiqarildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika fanida alohida dolzarblik kasb etayotgan muammolardan biri o'quvchilarda tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni hosil qilish jarayonini samarali tashkil etishning ilmiy asoslarini yaratishdan iboratdir. Tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni egallash natijasida o'quvchilarning tayyorgarlik darajalari ta'minlanib, ularning ijtimoiy hayotga samarali moslashishlari uchun imkoniyat yaratiladi.

Umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini tatbiq etish orqali bir qator masalalarga yechim topish taqozo etilmoqda. Jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim tizimida qo'llanilayotgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan talablar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud bo'lgan kompetensiyalar o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga taqdim etiladigan o'quv materiallarining ularda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni hosil qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir o'quv predmeti doirasida o'zlashtiradigan tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni ularning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash;
- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini hamda ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishga erishish kabilar.

Tadqiqot davomida yuqorida ko'rsatilgan bo'shliqlarni to'ldirish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan to'rtta tayanch kompetensiya hayotiy kompetensiyalar sifatida talqin etildi. Shu asosda hayotiy kompetensiyalarni hosil qilishning didaktik tizimini takomillashtirish va uni sinovdan o'tkazishga harakat qilindi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun dastlab kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, uning sifati va samaradorligini ta'minlash masalalari xorijiy olimlar T. Kellaghan, Yu. G. Tatur, P. Santiago, D. Nushe, T. Radinger hamda C. Shewbridge tomonidan o'rganilgan.

I. A. Zimnyaya va Ye. Alikinalar o'z tadqiqotlarida "kompetensiya" hamda "kompetentlik" tushunchalarini tavsiflashga muvaffaq bo'lganlar. Yu. I. Vorotnitskiy va N. A. Alekseyev kabi mutaxassislar ham o'z ishlarida "kompetensiya" hamda "kompetentlik" masalasiga murojaat qilganlar. M. M. Potashkin va A. A. Ribakova tadqiqotlarida ham ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tanlash bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Yu. G. Taturning ta'kidlashicha, kompetensiyaviy yondashuv insonning muammolarni anglagan holda o'z imkoniyatlari doirasida kutilayotgan natijalarni tasavvur eta olishi va ularga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlarni baholay olishi, shuningdek, faoliyatni qiyinlashtirayotgan sabablarni hamda ularni bartaraf etish vosita va yo'llarini topish orqali muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat yurita olish layoqatini ifodalaydi.

A. V. Xutorskiyning fikricha, kompetensiya o'quvchi uchun istiqboldagi faoliyatining aniq yo'nalishi hisoblanadi. Shu sababli o'quvchilarda kompetentli faoliyatning muayyan tarkibiy qismlari shakllantiriladi. Jumladan, dastlabki hisoblash ko'nikmalari, raqamlarni idrok etish, ularni o'zaro qo'shish va ayirish kabi faoliyatlar bunga misol bo'la oladi. O'quvchi kompetensiyalarni, birinchi navbatda, o'quv faoliyatini samarali amalga oshirish, ikkinchidan esa muvaffaqiyatli ijtimoiylashish, ya'ni istiqboldagi ijtimoiy faoliyatga tayyor bo'lish maqsadida egallaydi. Shu bois kompetensiyalar ijtimoiy-pedagogik xarakterga ega.

O'zbekistonlik mutaxassislar R. G. Safarova, S. T. Turg'unov va Yu. M. Asadovlarning kompetensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va kompetentlikka bag'ishlangan ilmiy ishlari mavjud. Boshlang'ich ta'lim jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalarning tasnifi, ularni o'quvchilarga taqdim etish yo'nalishlari, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlari va darsliklarda mavzular hamda didaktik materiallarning strukturalashtirilishi R. G. Safarova va F. M. Qo'chqorova tadqiqotlarida o'rganilgan. Pedagogik jarayonlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish masalalari S. T. Turg'unov va X. M. Tojiboyeva ishlarida, ta'lim sifati baholashda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanish masalalari esa M. M. Vahobov tadqiqotlarida yoritilgan. O'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va ularni amaliyotga joriy etish masalalari Yu. M. Asadov hamda N. Sh. Turdiyevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Yu. M. Asadovning ta'kidlashicha, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ta'lim-tarbiya maqsadlariga yo'naltirilgan turli xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar hamda shaxsiy fazilatlar yig'indisidan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o'quv jarayoni oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Jumladan:

1. O'quv fanlari mazmuniga yangi ilmiy tushunchalar va axborotlarni kiritish, masalan, iqtisodiy bilimlar tizimiga tijorat, tadbirkorlik, marketing hamda biznes reja kabi tushunchalarni qo'shish;
2. O'quv jarayoniga o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullar va strategiyalarni tatbiq etish.

O'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalaridan farqli ravishda kompetensiyalarning mazmun-mohiyati fan asoslariga oid bilimlar hamda tayanch kompetensiyalarni egallash orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, o'zaro hamkorlikka kirisha olish va shaxslararo dialogga asoslangan muloqotni yo'lga qo'yish kabi faoliyat usullarini egallashda ham namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarning nafaqat o'quv faoliyatida, balki kelgusidagi ijtimoiy hayotida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg'un tizimini ifodalaydi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, kreativ yondashuv hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va didaktik vositalarning uzviy uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang'ich ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlarini joriy etish, dars jarayonida faol va interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- o'quv jarayoniga raqamli va innovatsion didaktik vositalarni keng joriy etish;
- shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash tizimini takomillashtirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
2. Abdullayeva B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tayyor-garligini mazmuni / Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Jizzax, 2019-yil – 6-b.
3. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.
4. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.